

## O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Shovqiyeva Shohista Bobosher qizi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6621704>

«O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi» 41-moddasida ta'kidlanganidek, «har kim bilim olish xuquqiga ega»

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllanirishini, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq (demokratik) fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1997 yil 29 avgustda Prezident Islom Karimov Oliy Majlis X sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzuida nutq so'zladi. Shu sessiyada «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun qabul qilindi. U 5 bo'lim 34 moddadan iboart. Shuningdek, sessiyada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham qabul qilindi.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta'lim to'g'risi»dagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan holda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishda har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar ixtisosligini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash kadrlar tayyorlash tuzilmasi va

mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: «Ta'lim to'g'risi»dagi Qonunni joriy etishni; yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hayotga joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'limotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini attestasiyadan o'tkazishni va akkreditasiyalashni; yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Umid jamg'armasi yo'llanmasi bilan mamlakatimiz yoshlaridan jami 828 nafar sovrindorlar qisqa yillar mobaynida xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida malaka oshirib, ta'lim olib keldilar. Ya'ni: AQShda – 343, Buyuk Britaniyada 329, Germaniyada – 84, Fransiyada – 33, Yaponiyada 80, Kanadada – 1, Italiyada – 8. . Xozirda ularning 600 nafari vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga ishga taqsimlanganlar. Vazirlik va muassasalar apparatlarida 151 nafar, bank-moliya sohasida – 124 nafar, fan va ta'lim sohasida 84 nafari xizmat qilmoqda.[4]

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

1. respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
2. mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishdan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;
3. davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;
4. milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
5. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi

Mazkur dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Fundamentals of Library "Library management 101: A practical guide" by DIANE L.VELASQUEZ 2013

2. “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in
3. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
4. [http://en.wikipedia.org/wiki/Library\\_science](http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science)